

## “URUSH ODAMLARI” QISSASIDA BIYDI MOMO VA IJTIMOY-PSIXOLOGIK DERTERMINATSIYALANGAN OBRAZLAR

Yulduz Mustafayeva Nortoqi qizi

**Erkin tadqiqotchi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22045942>

**Annotatsiya:** Maqolada Nazar Eshonqulning “Urush odamlari” qissasidagi Biydi momo obrazining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Obrazning urush muhiti ta’sirida shakllangan ruhiyati va ziddiyatli tabiati yoritiladi.

**Kalit so’zlar:** Biydi momo, ijtimoiy-psixologik determinatsiya, ruhiyat, urush, obraz, konflikt.

**Аннотация:** В статье анализируются социально-психологические особенности образа Бийди момо в повести Назар Эшонкула «Люди войны». Раскрываются особенности её характера и психики, сформированные под влиянием военной среды.

**Ключевые слова:** Бийди момо, социально-психологическая детерминация, психология, война, образ, конфликт.

**Annotation:** The article analyzes the socio-psychological features of Biydi Momo in Nazar Eshanqul’s novella “People of War”. It highlights the character’s psychological state and contradictory nature shaped by the wartime environment.

**Keywords:** Biydi Momo, socio-psychological determination, psychology, war, character, conflict.

### KIRISH

Nazar Eshonqulning “Urush odamlari” qissasida **Biydi momo** obrazi badiiy tizimda murakkab, ko’p qatlamli va ziddiyatli xarakter sifatida namoyon bo’ladi. Ushbu obrazni an’anaviy “OQILA QARIYA” MODEL doirasida talqin qilish yetarli emas, chunki yozuvchi uni aynan urush davrining deformatsiyalangan axloqiy va psixologik muhitida shakllangan shaxs sifatida tasvirlaydi. Shu jihatdan Biydi momo obrazini tahlil qilishda uni *ijtimoiy-psixologik determinatsiya* asosida ko’rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

**Ijtimoiy-psixologik determinatsiya** — inson xulq-atvori, ruhiyati va shaxsiy xususiyatlarining ijtimoiy muhit, munosabatlar va guruh omillari ta’sirida shakllanishi hamda belgilanishi jarayoni. Bu jarayon insonning faqat biologik emas, balki ijtimoiy mavjudot sifatida yaqinlari, jamoa va ijtimoiy normalar bilan o’zaro ta’sirda rivojlanishini asoslaydi.

### ASOSIY QISM

Biydi momo – bu avvalo ijtimoiy nazorat va an’anaviy axloqning tashuvchi qahramoni sifatida maydonga chiqadi. U individual hissiyotlardan ko’ra kollektiv ongda shakllangan me’yorlarga tayanadi. Normat va Anzirat o’rtasidagi munosabatlarga aralashuvi ham aynan shu pozitsiyadan kelib chiqadi. U o’zini voqealarning tashqi kuzatuvchisi emas, balki ularni “to’g’ri yo’lga soluvchi” subyekt sifatida tutadi. Shu sababli uning harakatlari ko’pincha keskin, murosasiz va hukm chiqaruvchi xarakterga ega bo’ladi. Ayniqsa Anziratga nisbatan bildirgan salbiy fikrlari uning obrazida qat’iy axloqiy pozitsiya mavjudligini ko’rsatadi.

Biroq ushbu qat’iyat va sovuqlikni faqat individual xarakter xususiyati sifatida baholash ilmiy jihatdan biryoqlama bo’ladi. Biydi momo obrazida kuzatilayotgan hissiy sovuqlik – bu travmatik davr mahsuli sifatida yuzaga kelgan psixologik qotishdir. Urush, yo’qotishlar va doimiy beqarorlik sharoiti insonning hissiy reflekslarini o’zgartiradi, natijada u o’zini himoya qilish uchun ichki qat’iyat va befarqlikni shakllantiradi. Shu ma’noda Biydi momo mehrsiz

emas, balki mehrni ifoda etish mexanizmini yo'qotgan shaxs sifatida talqin qilinadi. *“...Biydi momo qishloqda har bir narsaga aralashishga haqqim bor deb hisoblashi bir tomondan ammaligi bo'lsa, ikkinchidan ko'pni ko'rgan, boshidan ko'p narsalarni o'tkazgan qishloqdagi eng keksa kampir ekanligi edi. Boshiga tushgan qiyinchiliklar, kulfatlar uning qaddini bukishdan ko'ra, tik qilib qo'ygan, u hali ham qarilikni bo'yniga olgisi kelmas, g'ayratli edi. Ba'zi chollar: “Biydi, kundan-kunga yasharib boryapsan, ke, sovchi qo'yib, senga uylana qolay, yurasanmi o'g'illaringdi eshigida sarg'ayib”, – deya tegishardi. Bu hazildan ko'ra uning chindan ham yosharib borayotganligiga ishora edi. “Rahmatli Buxor polvonning polvonligi u o'lgandan keyin xotinida qoldi”, deyishardi chollar. Avvallari ancha tortinchoq ayol eri o'lgandan keyin birdan qishloqqa aralashib, to'y-azasida bel bog'lab xizmat qilib, elning arzandasiga aylangandi...”*

Obrazning muhim jihatlaridan biri – uning narrativ-faol funksiyasidir. Biydi momo voqealar rivojida passiv ishtirokchi emas, balki konfliktni keskinlashtiruvchi kuch sifatida chiqadi: *“Normat O'rin cho'ponning hayotidan o'tishi bilan uyning chirog'i yonib turganini ko'rib, hayron bo'ldi. Qorato'shni Biydi momoning otxonasi eshigiga bog'lab, ko'ngli bir narsani sezganday, otni yalong'ochlamay ham uy tomon yurdi. Nazarida uyning eshigi ochiqdek, ichkarida kimdir o'tirganday tuyuldi-yu, ajablanishi battar oshdi. Katta-katta qadam tashlab ayvongacha bordi va uy ichida sochlari yoyilib ketgan, egniga uzun chopon kiygan kampirning chiroq oldida o'tirganini ko'rib qo'rqib ketdi. Kampirning pichirlayotgani ayvonchaga eshitilib turar edi. Normat eshikkacha bordi-yu, kampirning Biydi momo ekanini ko'rib, turgan joyida qotib qoldi.*

– Xudoyo o'zing kechir, – dedi Biydi momo o'ziga gapirganday, ko'zlarini yumib olib. – Hammamiz o'jiz bandamiz, o'zing bizlardi kechir. – Yuziga fotiha tortib, ko'zlarini ochdi. Yana mazax qilayotganday yuzlarini bujmaytirdi. – Seni kutib o'tiribman... Xotinjonningni o'ynashi keldi... Sen yana uni quchoqlamoqchi bo'lasan. Go'yo hammasini men o'ylab topganday, buzig'ingdiki yana qichib qopti... Indamay sening ochiq eshigingga kirib ketdi...”. Uning Normat ongiga Anzirat haqidagi salbiy qarashlarni singdirishi, aslida, syujet dinamikasini belgilovchi muhim omillardan biridir

*“..Bu gaplarni u xuddi Normatning ustidan kulayotganday, yarim tantana, yarim masxara bilan aytdi. Normat qo'lidagi miltiqni siqib ushlarkan, to'satdan paydo bo'lgan bu xabardan qalqib ketib:*

– Yolg'on?! – deb vishilladi. Uning ko'zlari kattarib, yuziga qon qo'pchidi. Yuragida tog'dagi tuyg'ulardan asar ham qolmay, o'rnini og'riq, juda ulkan og'riq egalladi.

– Yolg'on?! – Biydi momo ko'zlari olayib, birdan kulib yubordi. – Xa-xa-xa... yolg'o-o-on?.. Hali men yolg'onchi bo'p qolib, xotining toza bo'p qoldimi? Ha-ha, bor, o'zing ko'r... yolg'on bo'lsa... bor... o'sha buzuqingni... yana o'ynashi bilan qanday topishib olganini ko'r. Hozir o'ynashi xotinjonningni ishtonini yechib bo'ldi... Ha-ha, ha... avvalasi qilig'ini qip ham bo'lgandir... Men rosa yetmish uch kun poyladim. Yo'lini poyladim. Baribir kelishini bilardim... har kuni poyladim... Sovuqlarda muzlab bo'lsayam poyladim. Nihoyat, shubham to'g'ri chiqdi. Bilasanmi, u kim... Aytmayman!.. O'zing borib ko'r... agar erkak bo'lsang, o'ldir ikkoviniyam... chavaqlab tashla! Bolalamay yo'qot... ko'kragingda ozgina erkaklik g'ururi bo'lsa, o'ldir!

– O'ldiraman! – o'kirdi Normat, Biydi momoning yoqasidan shappa ushlab olib bo'g'a boshladi. – Qari shayton... o'ldiraman!..”. Shu nuqtai nazardan, u dramatik harakatni ichkaridan boshqaruvchi obraz, ya'ni konflikt generatori sifatida baholanishi mumkin. Bu esa uning asardagi funksional ahamiyatini yanada oshiradi.

Biydi momo obrazining yana bir muhim qirrasini — uning ambivalent (ikki tomonlama) tabiatidir. U bir vaqtning o'zida ham himoya qiluvchi, ham buzuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Bir tomondan, u Normatni "himoya qilish", uni noto'g'ri yo'ldan qaytarish niyatida harakat qiladi. Ikkinchi tomondan esa, aynan shu aralashuv orqali insoniy munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, uning harakatlari niyat va natija o'rtasidagi tafovutni ochib beradi. Bu esa obrazni yanada murakkablashtiradi. Biydi momo obrazi – u qadriyatlarni himoya qilaman deb, ularni qattiqlashtirib yuboradi; insonni asrayman deb, uning ichki erkinligiga zarar yetkazadi. Shu sababli u o'quvchi ongida salbiy hissiyot – sovuqlik, hatto nafrat uyg'otishi mumkin. Ammo aynan shu hissiy reaksiya yozuvchining badiiy niyatiga mos keladi: u o'quvchini axloqiy hukm chiqarishga emas, balki inson va davr o'rtasidagi murakkab munosabatlarni anglashga undaydi.

### **XULOSA**

"Urush odamlari" qissasini o'qiganda bir narsa juda aniq seziladi: bu asarda urush shunchaki voqea emas, u go'yo tirik, yovuz bir kuchdek hammaning hayotiga kirib boradi. Qimirlagan jon borki, hech biri urush ta'siridan chetda qolmaydi. Kimdir frontda yaralanadi, kimdir uyda qolib ichidan sinadi, yana kimdir hech narsani tushunmay turib bu og'irlikni ko'taradi. Urush odamni faqat o'ldirmaydi, u odamni ichidan yemiradi, ruhini buzadi, hayotini ostin-ustun qiladi.

Asardagi har bir obrazga qarasak, urush ularning har birini o'zgartirib yuborganini ko'ramiz. Normat tirik qaytgan, lekin ichidan sinib qolgan — u yaqinlariga mehr bera olmaydi, o'ziga ham begona bo'lib qoladi. Anzirat esa tashqaridan chidamli, lekin ichidan ezilib yashaydi. Biydi momo qattiq, sovuq bo'lib qolgan – hayot uni shunaqa qilib qo'ygan. Xolmat esa hali bola bo'lsa ham, kattalardek og'ir muhitni his qilib ulg'aymoqda. Demak, urush faqat bir odamni emas, butun bir oilani, hatto kelajakni ham buzadi.

Urush bu yerda go'yo shafqatsiz maxluqdek tasvirlanadi. U sovuq, jonsiz, lekin odamlarning qalbini kuydiradi. Urushda jonlar o'ladi, lekin undan ham og'iri – odamning ichidagi tinchlik o'ladi. Kimdir o'ldiradi, kimdir o'ldiriladi, lekin har ikki tomonda ham RUHIYAT AZOB chekadi. Odam tirik yuradi, lekin ichidan yonib yuradi.

Yana asarda juda qiziq bir jihat bor: urush faqat yomonlik olib kelmaydi, ba'zi joylarda odamni o'ylantirib ham qo'yadi. Masalan, Normat hayotiga kirib kelgan o'sha epizodik odamni olaylik. U o'z boshidan o'tganlarni gapirib berib, Normatga go'yo shunday deydi: "Ko'zingni och, hayot faqat nomusdan iborat emas, avvalo sen insonsanku, otasan-ku". Haqiqatan ham, erkak uchun xotinining xiyonatini kechirish oson emas, lekin bu yerda gap faqat shu haqda emas. Gap – bolalarda Xolmat va Hojar haqida. Ular nima ayb qildi? Ular ham odam bo'ladi-ku. Ana shu yerda Normat o'zini o'ylab qoladi. Oldin u faqat o'zining or-nomusi haqida o'ylagan bo'lsa, endi bolalarini o'ylay boshlaydi. Shu epizod orqali yozuvchi juda katta gapni oddiy qilib aytadi: inson qanchalik qiynalmasin, u avvalo inson bo'lib qolishi kerak. Ayniqsa ota bo'lsa, bolalarini unutmashligi kerak.

Xullas, "Urush odamlari" bizga shuni ko'rsatadi: urush hech kimni ayamaydi. U odamni o'zgartiradi – kimnidir yomon tomonga, kimnidir esa o'zini anglashga olib boradi. Lekin baribir urushning izi qoladi. Eng yomoni – bu iz odamning ichida qoladi. Shu sababli asarning asosiy fikri shuki: urush faqat tanani emas, qalbni ham yaralaydi, va bu yara eng og'iri.

1. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. -T.: G'afur G'ulom, 2016.-364 b
2. Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. -T.: Yangi nashr, 2010.-364 b.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. -T.: Navoiy universiteti,2018. -480 b.
4. Quronov D va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati.-T.: Akademnashr, 2013. -B.408.
5. Eshonqul N. Saylanma I. -T.: Akademnashr, 2022. -B.320.
6. Eshonqul N. Saylanma II. -T.: Akademnashr, 2022. -B.320.
7. Cho'lliyeva N. Nazar Eshonqul hikoyalari badiiyati va uslubi. -T.: Fan, 2022.
8. Yo'ldoshev Q. "Yoshlik"jurnali, 2014 yil, 9-son.
9. "Hozirgi adabiy jarayon masalalari" O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "Fan" nashriyoti Toshkent-2022. Dilmurod Xoldorov "Nazarning orginal qissalari".